Hujjat kodi: MMvaXTB-D-1	«NAVOIYAZOT» AKSIYADORLIK JAMIYATI	1 -nusxa

TASDIQLAYMAN:

"Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisi

_____ **F.X. Samadov**

15.05.2026-y.

«NAVOIYAZOT» AKSIYADORLIK JAMIYATI MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI BO'YICHA DASTUR

Navoiy sh. 2026-y.

«NAVOIYAZOT» AKSIYADORLIK JAMIYATI
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI BO‘YICHA DASTUR

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Dasturning maqsadi

Mazkur Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha dastur (keyingi o‘rinlarda – Dastur) «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish, ishlab chiqarish xavflarini aniqlash va kamaytirish hamda mehnatni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Dastur Jamiyatning ishlab chiqarish faoliyati, kimyo sanoatiga xos texnologik jarayonlar, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari hamda xodimlarning mehnat sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

1.2. Dasturning asosiy vazifalari

Dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ish joylaridagi xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini aniqlash, baholash va nazorat qilish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish;

xodimlar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini ta’minlash;

xavflarni kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularga tezkor javob qaytarish tizimini takomillashtirish;

xodimlarning mehnat xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish;

mehnatni muhofaza qilish sohasida ichki nazorat, audit va mustaqil tashqi baholash mexanizmlarini rivojlantirish;

xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va yetkazib beruvchilar faoliyatida mehnat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta’minlash.

1.3. Dasturning qo‘llanish doirasi

Dastur Jamiyatning barcha tarkibiy bo‘linmalari, ishlab chiqarish sexlari, laboratoriyalari, ma’muriy va yordamchi xizmatlari faoliyatiga tatbiq etiladi.

Shuningdek, Jamiyat hududida shartnoma asosida ish olib boruvchi xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va ushbu tashkilotlarning faoliyatida mehnat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ham ushbu Dastur doirasida nazorat qilinadi.

1.4. Normativ-huquqiy asoslar

Dastur quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi O‘RQ-410-son Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonun.

O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentabrdagi O‘RQ-57-son «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 291-son qarori – amaldagi tahririda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori «Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida».

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 22-sentabrdagi 505-son qarori «Mehnat faoliyati bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar to‘g‘risida xabar berish, ularni tekshirish va hisobga olish hamda ularning oqibatida yetkazilgan ziyonning o‘rnini qoplash to‘g‘risida».

Mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong‘in va sanoat xavfsizligi bo‘yicha amaldagi normativ-texnik hujjatlar.

ISO 45001:2018 – Mehnatni muhofaza qilish va kasbiy salomatlikni boshqarish tizimlari. Talablar va ulardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma.

ISO 31000:2018, COSO ERM 2017, Jamiyatning xavflarni boshqarish metodikasi (XBB-M-01), Xavflar kutubxonasi (XBB-M-02-01), ichki nazorat siyosati va ichki nazorat metodikasi hamda 2026-yil 3-martdagi 0378-son buyruq.

Dastur talablarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi ustuvor hisoblanadi.

2. MEHNAT XAVFLARINI ANIQLASH, BAHOLASH VA NAZORAT QILISH

2.1. Umumiy qoidalar

Mehnat xavflarini boshqarish Jamiyatning yagona xavflarni boshqarish tizimi (XBT) va ichki nazorat tizimi (INT) tarkibiy qismi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi mehnat muhofazasi qonunchiligi, ISO 31000:2018, COSO ERM 2017 va ISO 45001:2018 talablariga hamda Jamiyatning xavflarni boshqarish metodikasiga (XBB-M-01) muvofiq amalga oshiriladi.

Aniqlangan barcha mehnat xavflari Xavflar kutubxonasidagi (XBB-M-02-01) “Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi” kategoriyasiga (kodi: MMvaXTR) kiritiladi va Jamiyatning yagona xavflar reestrida qayd etiladi. Alohida, reestrdan tashqari xavflar ro‘yxatini yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mehnat xavflarini boshqarish “uch himoya chizig‘i” modeli asosida tashkil etiladi:

1-chiziq - sex va bo‘linma rahbarlari (xavf egalari): xavflarni aniqlash, baholash, nazorat choralarini bajarish uchun javobgar;

2-chiziq - Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘limi va Ishlab chiqarish nazorati boshqarmasi, Texnik nazorat bo‘limi (metodik nazorat va texnik ekspertiza) hamda Xavflarni boshqarish bo‘limi (XBB): metodologiya ishlab chiqish, reestrni yuritish, monitoring qilish va hisobot tayyorlash uchun javobgar;

3-chiziq - Ichki audit xizmati: tizim samaradorligini mustaqil baholaydi.

2.2. Xavflarni aniqlash

Jamiyatda ishlab chiqarish jarayonlari va ish joylaridagi xavfli hamda zararli omillarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda xavflarni identifikatsiya qilish va baholash ishlari amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi omillar hisobga olinadi:

kimyoviy moddalar, gazlar va zaharli birikmalarning ta’siri;

yuqori harorat va bosim ostida ishlaydigan uskunalar;

mexanik uskunalar va harakatlanuvchi mexanizmlar;

elektr toki va elektr qurilmalaridan foydalanish;

yong‘in va portlash xavfi;

shovqin, vibratsiya va ish zonasi havosidagi chang ta’siri;

balandlikda va yopiq joylarda (idishlar, quduqlar ichida, kislorod tanqisligi sharoitida) ishlash;

yuk ko‘tarish va tashish operatsiyalari;
ergonomik va jismoniy zo‘riqish omillari;
ish va dam olish rejimining xodimlar salomatligiga ta’siri.
naryad-ruxsatnoma asosida bajariladigan xavfli ishlar (olovli, gazga xavfli ishlar);
ichki transport va temir yo‘l harakati;
pudratchi tashkilotlar xodimlarining Jamiyat hududida ishlashi
Xavflarni aniqlashda quyidagi manbalardan foydalaniladi:
sex va bo‘linmalarning xavflari bo‘yicha xavflarni aniqlash so‘rovnomasi (XBB-M-02-03);
nuqsonlarni qayd etish jurnali va insidentlar jurnali, N-1 shaklidagi baxtsiz hodisa dalolatnomalari;
Jamiyat rahbarining 03.03.2026 yildagi 0378-son buyrug‘iga asosan XBBga yuborilgan xavf va hodisalar to‘g‘risidagi xabarnomalar;
amalga oshgan xavflar bo‘yicha hisobot (XBB-M-02-02);
mehnat sharoitlarini attestatsiya qilish, ichki va tashqi tekshiruvlar hamda auditlar natijalari
xodimlar tomonidan bevosita rahbarga, rahbar tomonidan esa XBBga xizmat yozuvi orqali yuborilgan yangi xavflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (Metodikaning 6.2 va 8.4-bandlari).
Har bir aniqlangan xavf uchun xavf egasi (sex yoki bo‘linma rahbari), xavf manbai, sabablari va mumkin bo‘lgan oqibatlari belgilanadi.

2.3. Xavflarni baholash tartibi

Xavflarni baholash XBB-M-01 metodikasida belgilangan ehtimollik “Juda kam, Kamdan-kam, Ba’zan, Tez-tez” va ta’sir bo‘yicha “Kichik, Sezilarli, Katta, Tanqidiy va Halokatli” shkalalari asosida quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Ish joyi va texnologik jarayonlarni o‘rganish.
2. Xavf egalari bilan intervyular o‘tkazish
3. Mavjud va ehtimoliy xavf manbalarini aniqlash hamda xavflar reestriga kiritish.
4. Xavfning ehtimolligi va ta’sirini yuqorida ko‘rsatilgan shkalalar bo‘yicha, avval mavjud nazorat choralarini hisobga olmagan holda (ichki xavf), so‘ngra ularni hisobga olgan holda (qoldiq xavf) baholash.
5. Mavjud nazorat choralarining samaradorligini (past, o‘rta, yuqori) baholash va xavfni xavf xaritasining tegishli zonasiga joylashtirish.
6. Yuqori xavfli omillarni birinchi navbatda bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar, mas’ul shaxslar va bajarish muddatlarini belgilash.
7. Belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishi va samaradorligini monitoring qilish.

Xavflarni baholashda ish joylarining mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish uskunalarining texnik holati, avvalgi baxtsiz hodisalar va aniqlangan kamchiliklar natijalari hisobga olinadi.
Qoldiq xavf darajasi to‘q qizil va qizil zonalarda (15-25 ball) bo‘lgan mehnat xavflari Xavflarni boshqarish qo‘mitasiga va Boshqaruv raisiga (Metodikaning 8.11-bandi) taqdim etiladi hamda Jamiyatning xavf-appetiti va xavf-tolerantlik chegaralari bilan solishtiriladi.

2.4. Xavflarni kamaytirish choralari va ichki nazorat

Xavfga javob strategiyasi (qochish, kamaytirish, o‘tkazish, qabul qilish) Metodikaning 10.3-bandiga muvofiq tanlanadi. Mehnat muhofazasi xavflarini kamaytirish quyidagi ustuvorlik asosida amalga oshiriladi:
xavf manbasini butunlay bartaraf etish;
xavfli jarayon yoki moddani xavfsizroq muqobil bilan almashtirish;
muhandislik-texnik himoya vositalarini joriy etish;
tashkiliy va ma’muriy nazorat choralarini kuchaytirish;
xodimlarni tegishli shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash.

Har bir muhim nazorat chorasi Jamiyatning ichki nazorat hujjatlariga (Ichki nazorat siyosati va ichki nazorat metodikasi) muvofiq "Xavf va nazorat matritsasi"da (XNM) qayd etiladi: nazorat tavsifi, egasi, davriyligi, turi (oldini oluvchi/aniqlovchi) va bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat. XBB nazoratlarning dizayn va amaliy samaradorligini belgilangan tartibda baholaydi.

2.5. Monitoring, asosiy xavf ko'rsatkichlari (KRI) va hisobot

Mehnat xavflari holati KRIlar orqali kuzatiladi (masalan, baxtsiz hodisalar soni va chastotasi, xavfli holatlar/"deyarli sodir bo'lgan hodisalar" soni, mehnat muhofazasi chora-tadbirlarining o'z vaqtida bajarilish darajasi). KRI pasportlari va chegara qiymatlari XBB-M-01 metodikasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Amalga oshgan har bir mehnat xavfi (baxtsiz hodisa, xavfli holat) 0378-son buyruqqa muvofiq belgilangan muddatda XBBga xabar qilinadi va XBB-M-02-02 hisobotida qayd etiladi.

Mehnat xavflari bo'yicha natijalar har chorakda XBB tomonidan Xavflarni boshqarish qo'mitasiga, so'ngra Boshqaruv, Audit qo'mitasi va Kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan xavflarni boshqarish va ichki nazorat bo'yicha hisobotga kiritiladi. Hisobot chorak tugaganidan so'ng 1,5 oy ichida taqdim etiladi (Metodikaning 11.1-bandi).

2.6. Xavflarni qayta ko'rib chiqish

Xavflarni baholash yiliga kamida bir marta, shuningdek quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqiladi:

ishlab chiqarish jarayonlari, texnologik uskunalar yoki ish sharoitlarida muhim o'zgarishlar yuz berganda;

baxtsiz hodisalar va xavfli holatlar aniqlanganda;

KRI chegara qiymatlari buzilganda;

ichki audit, tashqi tekshiruvlar yoki ichki nazorat baholash natijalarida kamchiliklar aniqlanganda.

Qayta baholash natijalari xavflar reestri, XNM va tegishli chora-tadbirlar rejasiga kiritiladi.

3. MAQSADLI KO'RSATKICHLAR VA CHORA-TADBIRLAR REJASI

Jamiyat mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyat samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy maqsadli ko'rsatkichlarni belgilaydi:

T/r	Ko'rsatkichlar	Maqsadli daraja
1	O'lim bilan yakunlangan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar	0 ta
2	Xodimlar va tegishli xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimlari uchun majburiy xavfsizlik o'qitishlari qamrovi	100%
3	Yuqori xavfli ish joylarini xavflarni baholash bilan qamrab olish	100%
4	Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ko'rikdan o'tishi	100%
5	Aniqlangan yuqori darajadagi xavflar bo'yicha tuzatuvchi chora-tadbirlarni belgilangan muddatlarda bajarish	100%
6	Rejalashtirilgan ichki tekshiruvlar va auditlarni amalga oshirish	100%
7	Favqulodda vaziyatlar bo'yicha rejalashtirilgan o'quv mashqlarini o'tkazish	Tasdiqlangan reja asosida

Jarohatlanishlar chastotasi va og'irlik darajasi, shu jumladan LTIFR ko'rsatkichi alohida monitoring qilinadi. Uning maqsadli qiymati avvalgi davr natijalari va ishlab chiqarishdagi ish soatlari asosida belgilanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar yillik natijalar bo'yicha tahlil qilinadi va zaruratga qarab qayta ko'rib chiqiladi.

4. FAVQULODDA VAZIYATLARGA TAYYORGARLIK VA ULARGA JAVOB QAYTARISH

"Navoiyazot" AJda ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish hamda xodimlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida zarur tashkiliy va texnik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Barcha texnologik sexlar uchun avariyalarni bartaraf etish reja (PLAS) lari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

4.1. Asosiy yo'nalishlar

Favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan yong'in va portlash xavfining oldini olish, xavfli kimyoviy moddalar sizib chiqishi va tarqalishi, shuningdek, texnologik uskunalarda avariyalar yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Barcha ishlab chiqarish sexlarida tasdiqlangan jadval asosida avariyalarni bartaraf etish rejalari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Shuningdek, elektr ta'minoti va muhim ishlab chiqarish tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklarga tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

O'quv mashg'ulotlari davomida xodimlarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

4.2. Tayyorlik va javob qaytarish mexanizmlari

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha harakat rejasi.

"Navoiyazot" AJda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha Harakat rejasi ishlab chiqilgan.

Mazkur reja 2022-yil 14-aprelda Jamiyat boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan va Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishilgan. Xodimlar favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar tartibi bilan tanishtirilgan.

2. Xodimlarni evakuatsiya qilish rejasi.

Jamiyat xodimlarini xavfsiz hududlarga olib chiqish bo'yicha Evakuatsiya rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur reja 2023-yil 20-sentabrda Jamiyat boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan va Konimex tumani hokimi bilan kelishilgan.

Rejada evakuatsiya yo'nalishlari, xodimlarni olib chiqish tartibi hamda yig'ilish joylari belgilangan.

3. Yong'inga qarshi va avariya-qutqaruv vositalarining shay holatda saqlanishi.

Jamiyat obyektlaridagi yong'inga qarshi vositalar va avariya-qutqaruv anjomlarining sozligi hamda doimiy shay holatda bo'lishi Favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Bu borada muntazam monitoring va profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

4. Amaliy o'quv mashqlari va mashg'ulotlarni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-sonli qarori talablariga muvofiq, tasdiqlangan rejalar asosida amaliy o'quv mashqlari va to'satdan tashkil etiladigan mashg'ulotlar muntazam o'tkazilmoqda.

Mashg'ulotlar yakunida natijalar tahlil qilinib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'riladi. Shuningdek, mashg'ulotlar natijalari hujjatlashtirilib, ularning samaradorligi baholab boriladi.

5. Xavfli tabiiy va texnogen jarayonlarni monitoring qilish va prognozlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi 1027-sonli qarori talablariga muvofiq, favqulodda vaziyatlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli tabiiy va texnogen jarayonlar muntazam monitoring qilinadi hamda prognozlanadi.

Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha oylik, choraklik va yillik hisobotlar belgilangan tartibda "O'zkimyosanoat" AJ hamda Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga taqdim etiladi.

6. Favqulodda vaziyatlar haqida avtomatlashtirilgan xabar berish tizimini joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi 361-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Jamiyatda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfi yoki sodir bo‘lishi haqida avtomatlashtirilgan xabar berish tizimini joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Mazkur loyiha doirasida loyiha-smeta hujjatlarining tegishli qismi ekspertizadan o‘tkazilgan.

Loyihani amalga oshirishning belgilangan muddati — **2027-yil II chorak.**

5. MEHNAT XAVFSIZLIGI NATIJALARINI MONITORING QILISH VA BAHOLASH

Jamiyatda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi muntazam ravishda baholanadi.

5.1. Monitoring ko‘rsatkichlari

Quyidagi ko‘rsatkichlar asosida monitoring olib boriladi:
ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar soni;
jarohatlanishlar chastotasi va og‘irlik darajasi;
kasb kasalliklari va mehnat faoliyati bilan bog‘liq sog‘liq muammolari;
xavfli holatlar va potensial baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi xabarlar;
xavflarni baholash natijalari;
shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash darajasi;
xodimlarning o‘quv va yo‘riqnomalardan o‘tish darajasi;
ichki tekshiruvlar natijasida aniqlangan kamchiliklar;
tuzatuvchi va profilaktik chora-tadbirlarning bajarilishi.

5.2. Natijalarni tahlil qilish

Monitoring natijalari davriy ravishda umumlashtiriladi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilmagan taqdirda, sabablar tahlil qilinadi va qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilanadi.

Mehnat xavfsizligi bo‘yicha natijalar Jamiyat rahbariyatiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Mehnat xavflari bo‘yicha KRI monitoringi, chegara qiymatlari va choraklik hisobotlarni taqdim etish tartibi Dasturning 2.5-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

6. ISHLAB CHIQARISHDAGI BAXTSIZ HODISALAR VA KASB KASALLIKLARINI TEKSHIRISH

Jamiyatda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jarohatlanishlar, kasb kasalliklari va boshqa noxush hodisalarni o‘z vaqtida aniqlash, xabar berish, tekshirish va hisobga olish tizimi tashkil etiladi.

6.1. Hodisalar to‘g‘risida xabar berish

Har bir xodim ish joyida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisa, jarohatlanish, xavfli vaziyat yoki inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi holat haqida bevosita rahbariga yoki korxonaning dispetchiri (79 229-22-24 raqami) ga zudlik bilan xabar berishi lozim.

6.2. Hodisalarni tekshirish

Baxtsiz hodisalarni tekshirish amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tekshiruv davomida:

hodisaning sodir bo‘lish sharoitlari o‘rganiladi;
hodisaning bevosita va tub sabablarini aniqlash ishlari olib boriladi;
mehnat xavfsizligi talablarining buzilishi holatlari tahlil qilinadi;
takrorlanishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;
mas’ul shaxslar va bajarish muddatlari belgilanadi.

6.3. Tuzatuvchi va profilaktik choralar

Tekshiruv natijalariga ko‘ra texnik, tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ularning bajarilishi tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan ta’minlanadi va mas’ul bo‘linma tomonidan nazorat qilinadi.

Baxtsiz hodisalarni xabar qilish, tekshirish va hisobga olish bo‘yicha 2026-yil 23-sentabrdan kuchga kirgan 505-son qaror talablariga, jumladan, 2026-yil 1-dekabrdan joriy etilishi belgilangan «Xavfsiz mehnat» elektron axborot tizimiga oid talablarga rioya etiladi.

7. XARIDLAR VA SHARTNOMALARGA MEHNAT XAVFSIZLIGI TALABLARINI INTEGRATSIYA QILISH

Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha shartnomalarda tegishli mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari hisobga olinadi.

7.1. Xaridlar jarayonida

Uskunalar, texnologik qurilmalar, ishlab chiqarish vositalari, kimyoviy moddalar va materiallarni xarid qilishda ularning xavfsizlik talablariga muvofiqligi hisobga olinadi.

Xususan:
mahsulot va uskunalarning texnik xavfsizlik talablariga muvofiqligi;
foydalanish va xavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalarning mavjudligi;
zarur himoya va xavfsizlik moslamalarining mavjudligi;
kimyoviy moddalar uchun xavfsizlik ma’lumotlari va tegishli hujjatlarning mavjudligi;
uskunalarni xavfsiz o‘rnatish, ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish imkoniyati.

7.2. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar

Jamiyat hududida ish olib boruvchi pudratchilar:
mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilishi;
o‘z xodimlarining tegishli o‘quv va yo‘l-yo‘riqlardan o‘tishini ta’minlashi;
ishlar uchun zarur shaxsiy himoya vositalarini taqdim etishi;
xavfli ishlarni belgilangan tartib va ruxsatnomalar asosida amalga oshirishi;
baxtsiz hodisalar va xavfli vaziyatlar haqida Jamiyatning mas’ul bo‘linmalarini xabardor qilishi shart.

Mehnat xavfsizligi talablariga rioya etilishi shartnoma shartlari va Jamiyatning ichki tartib-qoidalari asosida nazorat qilinadi.

8. XODIMLARNI O‘QITISH VA ULARNING BILIMINI OSHIRISH

Jamiyat xodimlarining mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirishga alohida e’tibor qaratadi.

8.1. O‘quv dasturlari

Xodimlar uchun quyidagi yo‘nalishlarda o‘quvlar tashkil etiladi:
Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha boshlang‘ich va davriy yo‘riqnomalar.
Ishlab chiqarish xavfsizligi va xavfli omillarni aniqlash.
Kimyoviy moddalar bilan xavfsiz ishlash.
Shaxsiy himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish.
Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.
Elektr xavfsizligi.
Balandlikda, yopiq joylarda va yuqori xavfli sharoitlarda ishlarni xavfsiz bajarish.
Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xavfli holatlarning oldini olish.

8.2. O‘qitish tartibi

Xodimlarni o‘qitish ularning lavozimi, kasbi, bajaradigan ish turi va ishlab chiqarishdagi xavf darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Yangi ishga qabul qilingan, boshqa ishga o‘tkazilgan yoki yuqori xavfli ishlarni bajaruvchi xodimlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli o‘qitish, yo‘l-yo‘riq va bilimlarni tekshirish ishlari amalga oshiriladi.

O‘quv jarayonlari tegishli jurnallar, bayonnomalar, sertifikatlar va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

9. ICHKI TEKSHIRUVLAR VA AUDITLAR

Jamiyatda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizli texnikasi talablariga rioya etilishi ustidan ichki nazorat va tekshiruvlar amalga oshiriladi.

9.1. Ichki tekshiruvlarning asosiy yo‘nalishlari

ishlab chiqarish joylarining xavfsizlik holatini tekshirish;
texnologik uskunalar va himoya qurilmalarining sozligini baholash;
xodimlarning shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishini nazorat qilish;
mehnat xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomalar va ichki hujjatlarning bajarilishini tekshirish;
xavfli ishlarni bajarish tartibiga rioya etilishini baholash;
pudratchi tashkilotlar faoliyatida xavfsizlik talablariga rioya etilishini tekshirish;
oldingi tekshiruvlarda aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishini nazorat qilish.

9.2. Audit natijalari

Ichki tekshiruvlar va auditlar natijalari bo‘yicha tegishli dalolatnomalar yoki hisobotlar rasmiylashtiriladi.

Aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha:
ularni bartaraf etish choralari;
mas’ul shaxslar;
bajarish muddatlari;
bajarilgan ishlarni qayta tekshirish tartibi belgilanadi.
Audit natijalari Jamiyat rahbariyatiga taqdim etiladi.

10. UYG‘UNLAShGAN BOShQARUV TIZIMIDA (INTEGRALLAShGAN MENEJMENT TIZIMI) DOIRASIDA MUSTAQIL TAShQI AUDIT VA BAHOLASh

10.1. Jamiyat Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va xodimlar salomatligini boshqarish tizimining (MMH va XST) samaradorligini hamda uning **Jamiyatning uyg’unlashgan boshqaruv tizimi (ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001) tarkibidagi boshqa boshqaruv jarayonlari bilan uyg‘unligini baholash maqsadida** mustaqil tashqi audit va muvofiqlikni baholashni (assessment) tashkil etadi.

10.2. Tashqi audit Jamiyatdan mustaqil bo‘lgan, tegishli milliy va xalqaro akkreditatsiyaga, malaka hamda tajribaga ega mustaqil audit yoki konsalting tashkilotlari (sertifikatlashtirish organlari) tomonidan amalga oshiriladi.

10.3. Integrallashgan tizim doirasidagi tashqi baholash quyidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- mehnatni muhofaza qilish tizimining amaldagi qonunchilik talablariga va **Jamiyatning yagona Siyosati hamda strategik maqsadlariga muvofiqligi;**
- ishlab chiqarish xavflarini boshqarish (HIRA), **ekologik aspektlar va sifat ko‘rsatkichlariga ta'sir qiluvchi risklarni o‘zaro bog‘liqlikda boshqarish samaradorligi;**
- xodimlarning sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, ish joylarida qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish choralari;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasalliklarning oldini olish tizimining samaradorligi;
- **sanoat xavfsizligi va ekologik xavflarni inobatga olgan holda** favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va choralarning uyg‘unligi;
- **ichki audit (internal audit) va yuqori raxbariyat tomonidan tahlil (management review) mexanizmlarining** hamda IMTning umumiy samaradorligi;
- pudratchilar va yetkazib beruvchilar faoliyatida mehnat xavfsizligi, **atrof-muhitni muhofaza qilish va sifat talablarining (korxonaning xaridlar va pudratchilarni boshqarish tartibiga muvofiq) bajarilishi.**

10.4. Tashqi baholashda va sertifikatlashtirishda **ISO 45001:2018 (MMH va XST) standarti, shuningdek, ISO 9001 (Sifat) va ISO 14001 (Ekologiya) xalqaro standartlarining o‘zaro integratsiyalashgan metodologiyalaridan va kombinatsiyalashgan audit usullaridan** foydalaniladi.

10.5. Tashqi audit yakunlari bo‘yicha **IMT talablariga mos keluvchi yakuniy hisobot** tayyorlanadi. Unda aniqlangan nomuvofiqliklar (non-conformities) va tizimni takomillashtirish imkoniyatlari (opportunities for improvement) ko‘rib chiqiladi.

10.6. Audit natijalariga ko‘ra, **nomuvofiqliklarning tub sabablarini tahlil qilgan holda (Root Cause Analysis), Jamiyatning umumiy rivojlanish rejasiga integratsiya qilingan Tuzatuvchi harakatlar rejasi (Corrective Action Plan)** ishlab chiqiladi va uning ijrosi doimiy monitoring qilinadi.

10.7. ISO xalqaro standartlari bo‘yicha sertifikatlash (yoki qayta sertifikatlash/nazorat auditi) o‘tkazilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organining nomi, sertifikatlarning (ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001) amal qilish muddati, audit natijalari va IMT doirasidagi kelgusi rejalar alohida hisobga olinadi hamda Yuqori raxbariyat t**omonidan tahlil yig‘ilishlari kun tartibiga majburiy band sifatida kiritiladi.**

11. MAS’ULIYAT VA BOSHQARUV

11.1. Jamiyat rahbariyati

Jamiyat rahbariyati:
mehnatni muhofaza qilish sohasidagi umumiy siyosat va ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi;
tegishli dastur va chora-tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;
zarur moliyaviy, moddiy va inson resurslarini ajratishni ta’minlaydi;
Dastur ijrosi ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi.

11.2. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi uchun mas’ul bo‘linmalar

Mas’ul bo‘linmalar:
xavflarni aniqlash va baholash ishlarini muvofiqlashtiradi;
profilaktik chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qiladi;
xodimlarni o‘qitish va yo‘riqnomalardan o‘tkazish jarayonini muvofiqlashtiradi;
baxtsiz hodisalar va xavfli holatlar bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtiradi;
ichki tekshiruvlar va auditlarda ishtirok etadi;
monitoring natijalari bo‘yicha Jamiyat rahbariyatiga hisobot taqdim etadi.

11.3. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari

Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari o‘zlariga biriktirilgan ish joylarida mehnat xavfsizligi talablariga rioya etilishini, xodimlarning o‘z vaqtida o‘qitilishini, aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishini ta’minlaydi.

11.4. Xodimlar

Jamiyat xodimlari:

mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi;

shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi;

xavfli vaziyatlar va baxtsiz hodisalar haqida rahbarlarini xabardor qilishi;

o‘quv va yo‘riqnomalarda ishtirok etishi;

o‘zining va boshqa xodimlarning hayoti hamda sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

11.5. Xavflarni boshqarish bo‘limi va Ichki audit xizmati

Xavflarni boshqarish bo‘limi mehnat xavflarining yagona xavflar reestrida aks ettirilishini, KRI monitoringini, nazorat choralarining samaradorligini baholashni va jamlanma hisobotlarni tayyorlashni 2-bo‘limda belgilangan tartibda amalga oshiradi. Ichki audit xizmati uchinchi himoya chizig‘i sifatida tizim samaradorligini mustaqil baholaydi.

12. DASTURNI MOLIYALASHTIRISH

Dastur doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish Jamiyatning tasdiqlangan budjeti, tegishli xarajatlar smetasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi mumkin:

shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini xarid qilish;

ishlab chiqarish uskunalarini xavfsiz holatga keltirish va modernizatsiya qilish;

xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish;

tibbiy ko‘riklar va profilaktik tadbirlar;

favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik;

ichki va tashqi auditlar;

mehnat xavfsizligini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlar.

13. DASTURNING IJROSINI MONITORING QILISH VA QAYTA KO‘RIB CHIQISH

Dasturning bajarilishi bo‘yicha monitoring doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Yil yakunida quyidagilar tahlil qilinadi:

belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish darajasi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va jarohatlanishlar dinamikasi;

aniqlangan xavflarning kamayishi;

o‘quv va profilaktik tadbirlar natijalari;

ichki va tashqi audit natijalari;

tuzatuvchi chora-tadbirlarning bajarilishi.

Dastur Jamiyat faoliyatidagi o‘zgarishlar, qonunchilikdagi yangilanishlar, audit natijalari va xavflarni baholash natijalarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqiladi.

Dasturga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Jamiyatda belgilangan ichki tartibda tasdiqlanadi.

14. YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur Dastur Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Dastur talablarini amalga oshirish Jamiyatning barcha tarkibiy bo‘linmalari, mas’ul xodimlari va tegishli faoliyat yo‘nalishlari uchun majburiy hisoblanadi.

Dastur talablarini bajarish bo‘yicha nazorat Jamiyat rahbariyati hamda vakolat doirasida tegishli mas’ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

ILOVA 1

2026–2027-YILLARDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI BO‘YICHA ASOSIY CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish muddati	Mas’ul ijrochilar
1	Ish joylari va ishlab chiqarish jarayonlaridagi xavflarni aniqlash va baholash.	Doimiy, belgilangan reja asosida	E, MM va XT boshqarmasi, Xavflarni boshqarish bo‘limi va barcha tegishli ishlab chiqarish bo‘limlari
2	Yuqori xavfli ish joylari bo‘yicha xavflarni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.	Yillik reja asosida	MM va XT bo‘limi, Ishlab chiqarish nazorati boshqarmasi
3	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xavfli holatlar sabablarini tahlil qilish	Har bir hodisadan so‘ng	MM va XT bo‘limi, ishlab chiqarish bo‘limi
4	Favqulodda vaziyatlar bo‘yicha o‘quv mashqlari va evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish	Tasdiqlangan yillik reja asosida	Ishlab chiqarish bo‘limi, HGQO, Tibbiy sanitariya qismi, XT bo‘limi
5	Xodimlarni mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitish	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qaroriga asosan	Kadrlar boshqarmasi xodimlar tayyorlash bo‘limi, MM va XT bo‘limi
6	Majburiy tibbiy ko‘riklarni tashkil etish	O‘zb. Res. Sog‘liqni saqlash vazirligining 10.07.2012 yildagi 200-sonli buyrug‘i asosida	Tibbiy sanitariya qismi, xodimlar bilan ishlag boshqarmasi, MM va XT bo‘limi, Kasaba uyushma qo‘mitasi
7	Xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash	O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining kimyo ishlab chiqarish xodimlari uchun maxsus kiyim, maxsus oyoq kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalarini bepul tarqatish normalari boyicha tuzilgan ro‘yxat asosida	Markazlashgan sotib olish boshqarmasi, E, MM va XT boshqarmasi
8	Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan mehnat	Ikki tomonlama tuzilgan shartnoma asosida, ish jarayoni davomida	Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning mas’ul shaxslari,

	xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish		MM va XT bo‘limi
9	Ichki tekshiruv va auditlarni amalga oshirish	Jamlanma yillik reja asosida	MM va XT bo‘limi, UBT bo‘limi va barcha tegishli ishlab chiqarish bo‘limlari
10	Audit natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish	Belgilangan muddat asosida	MM va XT bo‘limi, barcha tegishli ishlab chiqarish bo‘limlari
11	Mehnat xavfsizligi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni monitoring qilish	Har oy yakunida	MM va XT bo‘limi
12	Mustaqil tashqi audit yoki baholashni tashkil etish	Zaruratga va tasdiqlangan rejaga muvofiq	Rahbariyat, mas’ul xizmatlar
13	Yillik natijalar bo‘yicha hisobot tayyorlash va Dasturni qayta ko‘rib chiqish	Har yil yakunida	E, MM va XT boshqarmasi va barcha tegishli ishlab chiqarish bo‘limlari

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliylashtirish, sanoat va kooperatsion aloqalarini kengaytirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari **M.M. Vafoyev**

Ekologiya, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnika boshqarmasi boshlig‘i **Sh.A. Yunusov**

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnika bo‘limi boshlig‘i **N.N. Fozilov**